



OLIV HARBIY TA'LIM MUASSASA KURSANTLARINI PROFESSIONAL  
TAYYORLASHDA O'Q OTISHNING TAVSIFLARINI TUSHUNTIRISH ORQALI  
ULARNING OTISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

**Ortiqov Nodirjon Marat o'g'li**

*O'zbekiston Qurolli Kuchlari Akademiyasi kursanti*

**Axunov Rustam Narimbayevich**

*O'zbekiston Qurolli Kuchlari akademiyasi Qurollanish va Otish kafedrası o'qituvchisi*

**Azimov Shuhrat Alimjonovich**

*O'zbekiston Qurolli Kuchlari Akademiyasi*

*O'quv jarayonini rejalashtirish va nazorat qilish bo'linmasi katta ofitseri mayor*

**Annotatsiya:** *Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan ko'zlangan asosiy maqsad, uning asosiy tamoyillari, tezkorlik, o'q otilishining ro'y berishi, o'qning boshlang'ich tezligi va uning otish jarayoniga ta'siri hamda Oliy harbiy ta'lim muassasa kursantlarini professional tayyorlashda ularning to'g'ri o'q otish va uning ahamiyati haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Harbiy-vatanparvarlik, asosiy tamoyillar, tezkorlik, o'q otilishi, o'qning boshlang'ich tezligi, kursant.*

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik tarbiyalashdan ko'zlangan asosiy maqsad – yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak ma'suliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat. Yurt sha'nini ustun ko'rishi, yuqori harbiy tayyorgarlik, kerak bo'lganda Vatan himoyasi uchun jon olib ko'ksini qalqon qilish shular jumlasidandir.

Yoshlarni harbiy-harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy tamoyillari mazkur jarayonning ilmiy jihatdan asoslangani, uning muntazamligi, ta'lim-tarbiya va amaliyotining o'zaro uyg'unligi, tarixiylik va zamonaviylikning uzviy bog'liqligi bilan ifodalanadi va quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Ilmiylik;
- tarixiylik;
- aniqlik va tezkorlik;
- muntazamlilik;
- faollik;
- ta'lim-tarbiya ishlarining uyg'unligi;
- tarbiya jarayonining izchilligi;

harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish tamoyillari.



Oliy harbiy ta'lim muassasa kursantlarini professional tayyorlashda yuqori tezlikda otish ko'nikmalarini shakllantirish haqida fikr yuritishdan avval, tezkorlik nima ekanligiga e'tiborimizni qaratsak.

Tezkorlik deganda, individ harakatlarining tezlik xarakteristikasi, asosan harakat reaksiyasining vaqtini belgilovchi funksional xususiyatlarning kompleksi tushuniladi.

Tezlik namoyon bo'lishing uchta asosiy shakli bor:

- Yakka harakat tezligi (kichik tashqi qarshilikni yengish bilan)
- Harakatlar chastotasi
- Harakatlar reaksiyasi tezligi (yashirin latent davri).

Tezkorlikning eng sodda shakllarining namoyon bo'lishi bir-biriga aloqador emas. Ayniqsa, bu reaksiya vaqtiga bog'liq bo'lib, ko'p hollarda harakat tezligi ko'rsatkichlari bilan korelyatsiya qilinmaydi. Tezlikning namoyon qilinishini qayd etilgan uchta shaklining umumlashmasidan (qo'shilmasidan) aniqlash mumkin.

Endi o'q otilishining ro'y berilishiga to'xtalsak. Porox zarrachalarining tez alanga olishi natijasida va poroxli gazning bosimi harakatida stvol kanalidan o'q (snaryad) ning uzatilishi "otish" deyiladi. Bu holat juda qisqa vaqt (0,001—0,006 s) da ro'y beradi. Tepki bosilganda, patron pistoniga tez urilishi oqibatidagi uchqun chiqishi porox zarrachalarining alanga olishiga olib keladi. Bu holat kuchli katta miqdorda qizdirilishi natijasida gazga aylanib, o'ta kuchli bosim bilan har tomonlama harakatlanib, birdan kuchlanish miqdorini oshiradi. O'q 250-500 kgs/sm<sup>2</sup> (o'lchov miqdorida 1 kgs/sm<sup>2</sup> teng) 0,1 MPa bosim bilan joyidan siljib, stvol kesmasiga urilib, aylana harakatni davom ettiradi. Bu paytda porox stvol kanalida yonish holatini va gaz (o'lchov va bosim) miqdorini yiriklashtiradi. O'q 4—6 sm harakatda yo'nalib (2800 kgs/sm), katta bosimli gaz o'lchamiga yetadi. Yirik tezlanish natijasida o'q otilib, yopiq maydonga chiqadi. Yangi gaz o'lchami bosimni yiriklashtirish bilan bosimni pasaytira boshlaydi. O'qning stvol kanalida uchish holati 300—900 kgs/sm ni tashkil etadi. Stvol kanalida esa o'qning harakat tezligi kuchayadi. Lekin gaz darajasi past bo'lsa-da, o'z tazyiqini ko'rsatishni davom ettiradi. Stvol 157 kanalidagi o'q harakatlanishi tezligini to'xtovsiz oshirib, stvol kanali mo'risiga o'tadi. Stvol kanalidan keng yoyilib chiqqan gaz, o'qning ortidagi alanga harakatlanishida zarb to'linini vujudga keltirib, otish davrida tovush manbayini hosil qiladi. O'q uchish inersiya ta'siri havoda harakatlanishni davom ettiradi.

O'qning boshlang'ich tezligi va uning otish jarayoniga ta'sirini ko'rib chiqsak. Qurolning stvol kanalidan otilib chiqqan o'q tezligini oshirish bilan birga uchish nuqtasigacha, harakatlanish holati o'qning boshlang'ich tezligi deyiladi. O'qning havodagi uchishini davom ettirishi va tekis harakatlanishi uning boshlang'ich tezligiga ham bog'liq bo'ladi. Qurolning eng zaruriy jangovar xususiyatlardan biri – o'qning boshlang'ich tezligi. Boshlang'ich tezlikning kuchayishi o'qning havoda uchish masofasini bosib o'tib, nishonni shikastlash va o'ldirish (halok qilish) holatlarini tezlashtirish bilan bir qatorda, havodagi uchishi davomida esa, tashqi sharoit ta'sirida tezligini qisqartiradi.

O'qning boshlang'ich tezligini oshirishi stvolning uzunligiga, o'q va porox zarrachalari og'irligiga hamda boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Qurolning stvoli qancha uzun bo'lsa



(amaliyotda aniqlangan), porox va bosim qancha ko'p bo'lib harakatlansa, o'qning boshlang'ich tezligi shuncha ortadi.

Oliy harbiy ta'lim muassasa kursantlarini professional tayyorlashda ularning to'g'ri o'q otish va uning ahamiyatini o'rganib chiqsak.

O'qning nishonga borib tegishi davomida uning o'ldirish holati va teshib o'tishi, uning og'irligiga va tezligiga bog'liq bo'ladi. Amaliyotda o'qning o'ldirish holati va teshib o'tishi, uning havodagi eng so'nggi masofagacha harakatlanishi to'g'ri otish deyiladi.

Amaliyotda buning qo'llanish jarayoni eng tig'iz damlarda mo'ljalga olmay otish holatidir. Bunday holatda mo'ljalga otish nuqtasi balandligiga nishon namunasidan pastroqqa mo'ljallanadi. To'g'ri otish uslubi masofadagi nishon balandligiga hamda o'qning yer bag'irlab ketgan trayektoriyasiga ham bog'liqdir. Nishon qancha yuqori bo'lsa, o'qning to'g'ri otish masofasiga harakatlanishi ham shuncha katta bo'ladi. Mo'ljalga olishda birinchi navbatda uzoqdagi nishon tezroq shikastlantirilsa, bu vaziyatda dushmanga javob o'qi otishga imkon berilmaydi.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, mo'ljal va mo'ljallangan nuqta shunday hisobga olingan holda tanlanishi zarurki, o't ochishda ro'y beradigan o'rtacha trayektoriya nishonning o'rtasidan o'tishi lozim. 300 metrgacha bo'lgan masofaga avtomatdan o't ochishda, mo'ljallagichni otish qoidasiga asosan, 3 raqamli yoki "III" harfiga o'rnatish kerak. Mo'ljallanayotgan nishonning pastki qismiga yoki bo'lmasa o'rtasiga mo'ljallash kerak bo'ladi.

Masalan, avtomatdan 100 metr masofadagi ko'krak shaklidagi nishonlarga o'q otishda, mo'ljallanadigan nuqtasini, nishonni past qismiga qaratib, mo'ljallagichni "III" harfiga qo'yib, o't ochish lozim bo'ladi. Bu holatda trayektoriyaning ortib borishi mo'ljallash chizig'idan uzoqligi 25 sm ga tengdir. Bu esa, nishon markazidan o'tadigan trayektoriyaga mos tushadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinmi, Amir Temur ta'rificha, "Ishbilarmon lashkarboshi o'zini va to'qqiz sidohiy favji (askari)ni bir tandek ko'rib, ularni qo'l-oyog'i, bosh, ko'kragi va boshqa a'zolarini ishlatib kurashuvchi bir pahlavondek hisoblasin". Bu, o'z navbatida, jangovarlik va chiniqish ilmini o'rgatishdan iboratdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Temur tuzuklari. T., G'afur G'ulom nomidagi adabiyoti va san'at nashriyoti, 1991.
2. F.A.Abdullayev, E.X.Rasulev, A.R.Rahmonov. Qurolli to'qnashuvlar huquqi. T., "Adolat", 2001.
3. I.K.Abdukarimov. Men general bo'laman. T., "Cho'lpon".2001.
4. Vatan himoyasi -- muqaddas burch. T., "O'zbekiston", 2001.
5. <https://oliygoh.uz/abituryent/oliy-harbiy-ta'lim-muassasalariga-nomzodlar>
6. <https://abt.uz/blog/oliy-harbiy-ta'lim-muassasalariga-oqishga-kirish-tartibi>
7. <https://fayllar.org/chaqiruvga-qadar-v2.html?page=16>